



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 5/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 5/2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 5/2



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Zamira Ishonxo‘jayeva, Ra’no Maxkamova IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTON SSRDAGI AHOLI EVAKUATSIYASI MASALALARI (R-314 FONDI MATERIALLARI ASOSIDA).....	5
2. Dilrabo Babajanova XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA O‘ZBEKISTON YO‘L XO‘JALIGIDAGI TIZIMLI ISLOHOTLAR. (AVTOMOBIL YO‘LLARI* MISOLIDA).....	11
3. Jaxongir Inayatov MUSTAQILLIK YILLARIDA FOTOGRAFIYANING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA JAMOATCHILIK HAYOTIDAGI O‘RNI.....	18
4. Nurbek Matyakubov METROPOLITENLAR SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK ALOQALARI TARIXIDAN.....	24
5. Nodira Radjabova “BUXORCHA” VA “MAVRIGIXONLIK”: ISTIQLOL YILLARIDA YUKSALISH, IJRO VA IJROCHILIK MAHORATI.....	30
6. Abdulxamid Anarbayev, Shukrullo Nasriddinov AXSIKENT ARXEOLOGIYA PARKINING TASHKIL ETILISHI VA UNING TURIZMNI RIVOJLANISHTIRISHDAGI O‘RNI.....	38
7. Sevara Yusupova O‘ZBEKISTONDAGI KAM SONLI MILLAT VAKILLARINING IJTIMOIIY VA MADANIY HAYOTDAGI ISHTIROKI.....	43
8. Гулчехра Абдулхай ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХШУНОСЛИГИДА ТУРКИСТОН АССРНИНГ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА СОВЕТ ҒОЯВИЙ КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ ҚАРОР ТОПИШИ ВА РИВОЖЛАНТИРИЛИШИ МАСАЛАЛАРИ (1925-1950 йиллар).....	46
9. Наргиза Каримова ВЫРАЩИВАНИЕ, ПРОИЗВОДСТВО И ТОРГОВЛЯ БАКАЛЕЙНЫМИ ТОВАРАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД.....	58
10. Erkinjon Kenjayev XVI–XIX ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA TA‘LIM TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI: O‘QUV DASTURLARI VA SXOLASTIKA MUAMMOSI.....	63
11. Шоҳида Давурова ЎРТА ОСИЁ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ОЛИМЛАРИ ҲУЖЖАТЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ (кимёгар олимлар мисолида).....	67
12. Dilshod Xolmurodov, Shaxobiddin Yusupov O‘ZBEKISTONNING QADIMGI DAVRDAGI ME‘MORIY YODGORLIKLARI.....	74



Abdulxamid Anarbayev,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Antropologiya instituti professori, tarix fanlari doktori (DSc)
Shukrullo Nasriddinov,
Namangan davlat universiteti “Arxeologiya” kafedrasida katta o‘qituvchisi

AXSIKENT ARXELOGIYA PARKINING TASHKIL ETILISHI VA UNING TURIZMNI RIVOJLANISHTIRISHDAGI O‘RNI

For citation: Abdulkhamid Anarbaev, Shukrullo Nasriddinov. THE ORGANIZATION OF THE AXSIKENT ARCHAEOLOGICAL PARK AND ITS ROLE IN TOURISM DEVELOPMENT. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 5/2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20401578>

ANNOTATSIYA

Maqolada Farg‘ona vodiysidagi eng yirik arxeologiya ob‘yektlaridan biri bo‘lgan Axsikent yodgorligida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilingan. Unda asosiy e‘tibor ushbu arxeologiya ob‘yektining topografiyasi, toponimikasi, rivojlanish jarayonlari, majmuada amalga oshirilayotgan qazishma ishlarining bugungi kundagi holati, bu yerda barpo etilayotgan “Ochiq osmon ostidagi muzey”ning tuzilishi, kompozitsiyasi va eskpozitsiyasiga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi, arxeologiya ob‘yektlari, Buyuk Ipak yo‘li, Farg‘ona vodiysi, Axsikent shahri, “Ochiq osmon ostidagi muzey”, madaniy qatlam.

Абдулхамид Анарбаев,
Профессор Института антропологии,
доктор исторических наук (DSc) Академии наук Республики Узбекистан
Шукрулло Насриддинов,
Старший преподаватель кафедры археологии
Наманганского государственного университета

ОРГАНИЗАЦИЯ АРХЕОЛОГИЧЕСКОГО ПАРКА АХСИКЕНТА И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются работы, проводимые на памятнике Ахсикента, одном из крупнейших археологических объектов Ферганской долины. Основное внимание уделяется топографии, топонимии, процессам развития этого археологического объекта, текущему состоянию раскопок в комплексе, а также структуре, композиции и экспозиции строящегося здесь «Музея под открытым небом».

Ключевые слова: Республика Узбекистан, археологические памятники, Великий Шелковый путь, Ферганская долина, город Ахсикент, «музей под открытым небом», культурный слой.

Abdulkhamid Anarbaev,
Professor of the Institute of Anthropology, Doctor of Historical Sciences (DSc) of the
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Shukrullo Nasriddinov,
Senior Lecturer of the Department of Archaeology
Namangan State University

THE ORGANIZATION OF THE AXSIKENT ARCHAEOLOGICAL PARK AND ITS ROLE IN TOURISM DEVELOPMENT

ABSTRACT

The article analyzes the work being carried out at the Akhsikent monument, one of the largest archaeological sites in the Fergana Valley. The main attention is paid to the topography, toponymy, development processes of this archaeological site, the current state of excavations in the complex, the structure, composition and exposition of the “Open-air Museum” being built here.

Index Terms: Republic of Uzbekistan, archaeological sites, Great Silk Road, Fergana Valley, Akhsikent city, “Open-air museum”, cultural layer

Dolzarbligi:

Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab Sharq bilan Farbni bog‘lovchi muhim bo‘g‘in vazifasini o‘tab kelgan Axsikent shahri o‘zbek xalqining etnik va davlatchilik tarixining ajralmas qismi sifatida o‘ziga xos tarix hamda rivoyatlarga ega. Ushbu poytaxt shahar qoldiqlari asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning tashabbusi bilan O‘rta Osiyoda birinchi bo‘lib “Ochiq osmon ostidagi muzey”lar tashkil qilinmoqda.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Maqolada umumqabul qilingan ilmiylik, tarixiylik, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Maqolani yozishda A. Anarbaev va I. Ahrorov tadqiqotlariga ko‘proq tayanildi.

Tadqiqot natijalari:

Axsikent arxeologiya yodgorligi Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida, Sirdaryoning o‘ng sohili bo‘ylab joylashgan. Miloddan avvalgi III asrda ushbu yodgorlik o‘rnida qadimgi Farg‘ona davlatining poytaxtiga asos solingan. Aniqroq qilib aytganda, Axsikat (Axsikent) shahri qadimdan to IX asrning birinchi yarmigacha Farg‘ona, IX asrning ikkinchi yarmidan to XI asrni o‘rtalarigacha Farg‘ona-Axsikat, XI asrning ikkinchi yarmidan boshlab mo‘g‘ullar bosqinigacha Axsikat deb atalgan. O‘zaro urushlar va tabiiy ofatlar natijasida shahar vayron bo‘ladi va hozirgi Axi qishlog‘i yaqiniga ko‘chadi. Bu yerda shahar to 1620 yillargacha, ya‘ni kuchli zilzilagacha faoliyat ko‘rsatib, manbalarda Axsikat, Axi, ba‘zida Axsikent deb tilga olinadi. Hozirgi kunlarda ushbu shaharning nomi mahalliy xalq orasida Eski Axi, Yangi Axi, Axi yoki Axsikent nomi bilan saqlanib qolgan [C. 174–187].

Shahar qadimda 3 qism (qal‘a, shahriston, rabod)dan iborat bo‘lib, maydoni 50 gektardan oshiq bo‘lgan. Ilk o‘rta asrlarda shahar sharq tomonga kengayib, maydoni, taxminan, 70 gektarga yaqinlashadi. Rivojlangan o‘rta asrlarda uning maydoni 400 gektardan oshib ketib, o‘z davrining “megapolisi”ga aylanadi [2. C. 67]. Hozirgi kunlarda undan 70 gektarga yaqin joy saqlanib qolgan, xolos.

2019-yilning fevralida ichki shahristonning bitta ob‘yekti (VIII)da “Ochiq osmon ostidagi muzey”ning birinchi ko‘rgazmasi tayyorlandi. Shu yilning 28 fevral kuni Respublika Prezidenti Sh. M. Mirziyoev ushbu majmuaga tashrif buyurib, ko‘rgazmani ma‘qulladi va yangi ko‘rsatmalar berdi. Shu asosda yana 8 ta yangi ob‘yekt “Ochiq osmon ostidagi muzey” ko‘rgazmasiga tayyorlanmoqda.

Umuman olganda, shu kunlarda 8 ta ob‘yekt muzey ko‘rgazmasi uchun tayyor. VIII ob‘yektning (36x22m) usti to‘liq yopilib, muzeyga aylantirilgan. Bu yerda X asrning o‘rtalarida pishiq g‘ishtlardan tunnel ko‘rinishda qurilgan yer osti suv yo‘li – vodoprovod va 1,5 yillik madaniy qatlamlar namoyish etilmoqda. Bu yerda uzoq vaqt, ya‘ni IX asrdan boshlab to XIII asrning birinchi choragigacha temirchilar mahallasi joylashgan bo‘lib, asosan, temir va po‘latdan

har xil xo'jalik buyumlari va qurollar ishlab chiqarilgan. Muzeysga aylantirilgan joyda ustaxonalarning dam oladigan va yuvinadigan xonalari ochilgan. Dam oladigan xonalarda supa, o'choq va sandal mavjud. Yuvinadigan xona – g'usul-xonaning poli pishiq g'ishtlar bilan qoplangan, yuvindi suv maxsus quvurlar orqali tashnavga tushgan. Hojatxona va axlat tashlaydigan maxsus chuqurlar bo'lib, ularning diametri 0,70–075 m, chuqurligi 10–15 m bo'lgan. Demak, ustaxonalarda ishlagan hamma xodimlarga ishlash va dam olib hordiq chiqarish uchun yetarli sharoit bo'lgan. Ustaxonalar va unga bog'liq bo'lgan qurilmalar sinch devorlar yordamida qurilgan [3. B. 10–17].

Respublika Prezidentining Axsikentga tashrifidan so'ng tayyorlanayotgan 8 ta (VIII, XI, XVIII, XIX, XXIV, XVI, XXI, VI) yangi ob'yektlarda o'tmish tarixga oid qiziqarli ma'lumotlar olish mumkin. Jumladan, VIII "A" ob'yektda VIII ob'yektdagi yer osti vodoprovodining davomi namoyish etiladi. Bu yerda vodoprovodning mayda shaxobchalarga bo'linishi, uning qurilishida tabiiy relefdan unumli foydalanilganli, qurilish texnikasi va unda ishlatilgan materiallar bilan tanishish mumkin. yer osti vodoprovodi aniq matematik hisob-kitoblar asosida qurilganligiga yana bir bor guvohi bo'ldik. Bunga ajablanmasa ham bo'ladi, chunki Farg'ona-Axsiket shahri Ahmad Farg'oniy kabi buyuk allomalar yurti bo'lgan. yer osti vodoprovodning VIII ob'yektda ochilgan qismi o'ziga xos bo'lib, alohida e'tiborga loyiq. Chunki, ushbu joyda vodoprovod kichik xajmda va yer sathiga yaqin joylashgan. Tadqiqotlarga qaraganda, qadimda VIII ob'yektdan janub tomon relef pasayib borgan. Bundan qadimgi arxitektorlar vodoprovod qurilishida yaxshi foydalangan-lar. Pishiq g'ishtdan qurilgan vodoprovod (o'lchami 0,54x0,36 m) mahalla yoki hovuz tomon yo'nalmoqda.

Navbatdagi XVIII ob'yektda yer osti vodoprovod tizimini kuzatish xonasi, XI–XII asrlarga oid ishlab chiqarish korxonalari va Farg'ona vodiysida birinchi marotaba monumental arxitektura qoldiqlariga tegishli devoriy rasmlar ochildi. yer osti vodoprovod tizimini kuzatish xonasi to'liq pishiq g'ishtlardan yarim gumbaz ko'rinishda qurilgan bo'lib, unga o'sha davr yer sathidan pishiq g'ishtdan terilgan zinapoyalar orqali tushilgan. Xonaning o'rtasida to'g'ri to'rtburchakli hovuzcha mavjud. Unga suv shimoldan pishiq g'ishtlardan tunnel ko'rinishda qurilgan maxsus inshoot ichiga o'rnatilgan quvurlar orqali quyilgan [4. C. 125]. Agar suvda qum yoki loyqa bo'lsa, u, albatta, hovuzda qolgan. Toza suv maxsus qurilma ichidagi quvurlarda shahar arkiga qarab oqishda davom etgan. Shu bilan birga, ushbu ob'yektda 36 m uzunlikda Muhammad Xorazmshoh davrida mo'g'ullardan himoyalani uchun shoshilinch qurilgan mudofaa devor qoldiqlarini ochib, namoyish uchun tayyorlanmoqda.

XIX ob'yekt yuqorida tilga olingan manzillardan shimoliy-g'arbda joylashgan bo'lib, bundan ikki ming yil avval qurilgan 20 metr balandlikdagi mudofaa devor va uning tagidan olib o'tilgan X–XIII asrlarning boshlariga oid yer osti vodoprovodining ikkinchi yo'nalishi namoyish etiladi. Bu yerdagi vodoprovod qurilishida tutash idishlar qonunini amalda qo'llab, shaharning g'arbiy rabodiga toza ichimlik suvi olib o'tilgan. Bu yerda ham vodoprovod aniq hisob-kitoblar asosida qurilgan. XI ob'yektda boy-badavlat oilaga tegishli uy qoldiqlari va yuqorida tilga olingan Muhammad Xorazmshoh davriga mansub ichki shahriston mudofaa devori ochilmoqda. Qazishmalar vaqtida xilma-xil devoriy rasm qoldiqlari topildi. Bu yerda to'liq saqlangan pishiq g'ishtlardan qurilgan gumbazli yer osti xona, mudofaa devor va mahobatli bino qoldiqlari namoyish etiladi.

Sharqiy rabotdagi XXIV ob'yektda ochilayotgan Qoraxoniylar davri (XI–XIII asrlar)ga oid pishiq g'ishtdan qurilgan monumental arxitektura qoldiqlari o'zining mahobatlilikiga bilan ajralib turadi. Binoning asosiy qismi saqlanmagan, undan faqat pol qoldiqlari va 1 ta tashnav qolgan, xolos. Lekin, 2 ta yer osti xonasi – tagxona yaxshi saqlangan. Qazishmalar davomida Somoniylar (IX–X asrlar) va Qoraxoniylar (XI–XIII asrlar) davriga mansub mis tangalar, shisha va boshqa minerallardan yasalgan munchoqlar va rang-barang sirli sopol idishlar topildi [5. B. 16]. Bularning hammasi qurilajak arxeologiya muzeyi ko'rgazmalarida munosib o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan kelajakda Axsikent yodgorligi asosida "O'tmishga sayyohat" va "Sharq taronalari" kabi xalqaro festivallarni o'tkazish rejalashtirilmoqda. Shunga muvofiq, Shahand qishlog'i yonida majmua qurilishi rejalashtirilgan.

Majmua, asosan, 2 qismdan iborat bo‘ladi: festival o‘tkazishga mo‘ljallangan teatr va arxeologiya muzeyi.

Arxeologiya muzeyi 2 qavatli bo‘lib, birinchi qavatda Farg‘ona-Axsikent shahri xarobalaridan topilgan arxitektura qoldiqlarining (mudofaa devorlari, yer osti vodoprovodi, yer osti gumbazli xona, turar-joylar, ustaxonalar, kazarma, hammom, tazarlar) tiklangan ko‘rinishdagi nusxalari zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda beriladi. Shu yerning o‘zida yodgorlikning ko‘rinishlari, qazishma jarayonlarining rangli rasmlari ham ko‘rsatiladi. Farg‘ona vodiysidagi qadimgi shaharlar va ularning Buyuk ipak yulidagi o‘rni davrma-davr rangli kartalarda beriladi. Qadimgi Pop (Bob) shahri xarobalari bo‘lmish Qirqhujra, Balandtepa va Munchoqtepa yodgorliklaridan topilgan olov ibodatxonasining ko‘rinishi, sag‘analarning ochilishi va Mug‘tepa-Mug‘qal‘adagi qadimgi Koson shahrining joylashuvi hamda ko‘rinishlari zamonaviy texnologiyalar yordamida aks ettiriladi. Shu bilan birga, Farg‘ona-Axsikentda tug‘ilib, voyaga yetgan yirik allomalarning rasmlari va ularning asarlaridan parchalar beriladi.

Muzeyning ikkinchi qavatida Markaziy Farg‘onadagi mezolit-neolit davriga oid ibtidoiy dehqonchilik (termachilik), Chust madaniyatiga tegishli ilk sug‘orma dehqonchilik va urbanizatsiya jarayonlari kosmosdan olingan rasmlardan foydalangan holda karta-sxemalar va tiklangan landshaftlar ko‘rinishda zamonaviy texnologiyalar yordamida ko‘rsatiladi. G‘ovasoy va Kosonsoy vohalaridagi urbanizatsiya jarayonlar, Eski Axxi (Axsikent) yodgorligi va uning atrofidagi shaharlar xarobalaridan qazib olingan arxeologii topilmalar davrma-davr xronologik tarzda namoyish qilinadi. Ayniqsa, rivojlangan o‘rta asrlar davri muzey ko‘rgazmalarida alohida ahamiyat kasb etadi.

Sivilizatsiyaning asosiy mezoni hisoblangan shaharlar, ayniqsa, poytaxt shaharlar tez taraqqiy etadi. Xususan, poytaxt shahar Farg‘ona-Axsikent bu davrda gullab yashnaydi. Uning maydoni 400 gektardan oshib ketib, o‘z davrining “megapolisi”ga aylanadi. Ko‘rgazmada shahar topografiyasi davrma davr berilib, unda shaharni suv bilan ta‘minlagan yer osti vodoprovodi hovuzlar, dunyoga “Damashq qilichlari” nomi bilan mashhur bo‘lgan qurollar yasalgan ustaxonalar, bozorlar, mudofaa inshootlari, yer osti qurilmalar, jom‘e masjidi, turar-joylar, hammomlar, kanalizatsiya inshootlari va boshqalarning qazishmadan keyingi ko‘rinishlari, chizmalari va tiklangan nusxalari beriladi. Xususan, X asrda shaharga 14-15 km masofada hozirgi To‘raqo‘rg‘on shahri o‘rtasidan oqib o‘tayotgan Kosonsoydan pishiq g‘ishtdan tunnel ko‘rinishda qurilgan yer osti vodoprovodi orqali suv olib kelingan. Shahar ichida ham suv xuddi shunday yer osti vodoprovodi orqali taqsimlangan. Shahar ichidagi vodoprovod hozirgi metro uslubida qurilganligi kishini hayron qoldiradi. Uning qoldiqlari shahristonning 5 joyida ochib, o‘rganilgan bo‘lib, ular ko‘rgazmada o‘z aksini topadi [6. C. 173–183].

Bu davrda Farg‘ona-Axsikentda toshga ursa kesadigan, dunyoga “Damashq qilichlari” nomi bilan mashhur qurollar tayyorlangan. Bunday qurolni yasash uchun toza po‘lat (“bulat”) kerak bo‘lgan. Toza po‘latni Axsikent metallurglari o‘ta murakkab texnologiya orqali qo‘lga kiritgan. Shuning uchun uni sir saqlagan. Ustasi farang Axsikent hunarmandlari tayyorlagan qurollar sharqda Xitoy, g‘arbda esa Damashq bozorlarida sotilgan. Bunday qurollarni tayyorlagan ustaxonalar va po‘lat ishlab chiqarishning qoldiqlari yodgorlikning 50 gektardan ziyod maydonida kuzatilgan. Arxeologik qazishmalarga asoslanib, ustaxonalarning maketlari yasaladi, ularning ichki intereri tiklanadi. Bularning hammasi ko‘rgazmada zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘z aksini topadi.

XIV asrning 70-yillarida Sohibqiron Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi bilan yangi uyg‘onish davri boshlanadi. Vayron bo‘lgan shaharlar qaytadan tiklanadi. Temur va temuriylar davrida Axsikent shahri yangi joyda, Eski Axxi yodgorligidan 6 km g‘arbdagi hozirgi Axxi qishlog‘i yaqinida Sirdaryoning o‘ng sohili bo‘ylab barpo etilgan. Ushbu shahar xarobalari mahalliy xalq orasida Yangi Axxi deb atalib, uning bir qismini Sirdaryo yuvib ketgan, qolgani 1960–1970 yillardagi paxta yakkahokimligi davrida yo‘q qilib yuborilgan. Shaharning ba‘zi bir uzuq yuluq qoldiqlari madaniy qatlamlar ko‘rinishida hozirgi Yakkayigit qishlog‘i uylari tagida qolgan. Ushbu yodgorlik hududida 1970 va 2020 yillarda olib borilgan qazishmalar davomida qo‘lga kiritilgan arxeologik artefaktlar muzeyning ushbu davriga mansub qismida namoyish etiladi. Shu bilan birga, yodgorlik Sirdaryo yoqasida joylashgan bo‘lib, bu yerda ekoturizmni ham

rivojlantirish mumkin. Buning uchun yodgorlikning janubiy qismidagi muhofaza zonasini aniqlash va Sirdaryo yoqalab zamonaviy bandargohlar tashkil qilish ishlari olib borilmoqda.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda Axsikent yodgorligi bazasida “Axsikent arxeologiya parki” ning barpo etilishi va uning tarkibidagi zamonaviy arxeologiya muzeyi, ochiq osmon ostida ko‘rgazma va daryo yoqalab ekoturistik ob‘yektlarning tashkil etilishi, yukorida tilga olingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-fevralda Axsikentga qilgan tashrifi chog‘ida bergan ko‘rsatmalari amalda bajarilayotganligini ko‘rsatib turibdi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Анарбаев А. Ахсикент в древности и средневековье (итоги и перспективы исследования) // Советская археология. – 1988. – №1. – С. 174–187.
2. Анарбаев А. Ахсикент – столица древней Ферганы. – Ташкент, 2013. – С. 67.
3. Анорбоев А. Ахсикент археология объектини ўрганиш ва муҳофаза қилишга доир // Водийнома. – Андижон, 2018. – №2. – Б. 10–17.
4. Анарбаев А. Ахсикент – столица древней Ферганы... – С. 125.
5. Анорбоев А. Ахсикент археология объектини ўрганиш ва муҳофаза қилишга доир... – Б. 16.
6. Анарбаев А., Ахраров И. Баня средневекового Ахсикента // ИМКУ. Вып.25. – Ташкент, 1991. – С. 173–183.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000